QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.149

TALABALAR O‘QUV-BILISH FAOLIYATIDA MUSTAQIL TA’LIM JARAYONINING BEQIYOS O‘RNI

Ruziyev Shuxrat Islamovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Xodimlar bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d (PhD), v.b.dotsent
e-mail: shuxratruziyev480@gmail.com |
https://orcid.org/0009-0000-8901-836X

Annotatsiya. Mazkur maqolada loyihalash metodi ta’lim jarayonida qo‘llanishi va uning talabalar mustaqil bilim olish motivatsiyasi hamda ko‘nikmalariga ta’siri tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar asosida loyihaviy ta’limning nazariy asoslari, afzalliklari, amaliy jihatlari va muammolari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil, ijodiy pedagogika, metod, talaba, muammo, loyihalash metodi.

THE INCOMPARABLE ROLE OF THE INDEPENDENT LEARNING PROCESS IN STUDENTS’ LEARNING AND COGNITIVE ACTIVITY

Abstract. This article analyzes the application of the project-based method in the educational process and its impact on students’ motivation and skills regarding independent learning. Drawing on scholarly sources, the article examines the theoretical foundations, advantages, practical aspects, and challenges of project-based education.

Keywords: independent, creative pedagogy, method, student, problem, project-based method.

НЕОЦЕНИМАЯ РОЛЬ ПРОЦЕССА САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье анализируется применение проектного метода в образовательном процессе, а также его влияние на мотивацию учащихся и развитие у них навыков самостоятельного обучения. На основе научных источников рассматриваются теоретические основы, преимущества, практические аспекты и трудности проектного обучения.

Ключевые слова: самостоятельность, творческая педагогика, метод, учащийся, проблема, проектный метод.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy maqsadi — talabalarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu maqsadda zamonaviy pedagogik

texnologiyalar, xususan loyihalash metodi (project-based learning) o‘quv jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Bu metod talabalarning faolligini oshiradi, o‘z fikrini asoslash, muammoni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Loyihalash metodi — bu talabaning amaliy muammoni mustaqil hal etishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatini tashkil etish metodidir. Unda o‘quvchi yoki talaba o‘z bilim va tajribasidan foydalanib, muayyan mavzu bo‘yicha loyiha ishlab chiqadi, uni tahlil qiladi va natijalarni taqdim etadi. Bu metod quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Muammoni aniqlash va maqsad qo‘yish
2. Axborot to‘plash va tahlil qilish
3. Loyiha yechimlarini ishlab chiqish.
4. Natijalarni himoya qilish va tahlil etish.

Loyihalash texnologiyasi ta’limda o‘qituvchi va talabani birdek ishlashga, talabada mustaqillikni yanada oshirishga xizmat qilar ekan, bu o‘rinda undan kutiladigan natijalar ham yangilik sifatida qaralishga munosib ishlar bo‘lishini nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davletshin M. “Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti” asarida pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini yoritgan [1]. Karimova V. “Zamonaviy ta’lim metodlari”da zamonaviy o‘qitish usullarini ko‘rsatgan [2]. Dewey J. Experience and Education asarida tajriba va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslagan [3]. Thomas J.W. “A Review of Research on Project-Based Learning”da loyihaviy ta’lim bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirgan [4]. Ro‘zmetova G.Sh. o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning asoslarini bayon etgan [5].

MATERIALLAR VA METODLAR

Loyihalash metodlari orqali o‘qitishda quyidagi natijadorliklar hosil bo‘ladi:

– O‘qituvchining kuzatuvchi va yo‘l boshlovchi sifatidagi ishtiroki, talabalarning esa asosiy loyiha mualliflari, loyihani bajaruvchilari bo‘lib ishlashlari;

– Har bir talabaning ma’lum dolzarb yoxud kichik muammoni aniqlab, uning uchun bajariladigan ishlar rejasi hamda yechimini topishiga alohida o‘qituvchi tomonidan e’tibor berilishi;

– Birgina katta muammoga ham turlicha usullar orqali yondashuvni ta’minlash zamirida mukammal loyiha ishlarini yarata olish tajribalari paydo bo‘lishi;

– Fikrlashi, qobiliyati, bilim darajasi bir-biriga yaqin talabalardan kichik guruhlarni tashkil etish. Va bu asosida loyihalash jarayonidagina emas, balki boshqa jamoaviy ishlarda ham bir xil tipdagi talaba guruhi bilan ishlashni osonlashtirish. Loyihalash texnologiyasidan foydalanish shuningdek, talabalarga individual va differensial yondashish imkonini beradi [1;45b].

Metod amalga oshirilish jarayonida qamrab oladigan jihatlar, doimiy muhim hisoblanuvchi unsurlar ham bo‘lib, ular shulardan iborat:

– Loyiha tuzilishi yaxshi ishlangan bo‘lishi;

– Loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar uchun tadqiqot predmeti, dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati, foydalaniladigan metodlar, tajribalar o‘tkazish;

– Natijalarni rasmiylashtirish metodlari aniq bo‘lishi lozimligi.

Talabalarga bu texnologiya nima beradi? Savolga javob esa juda oddiy. Bajariladigan ishi nima maqsadda amalga oshirilayotgani, unda qanday metodlarni qo‘llay olishni rejalashtirish. Ishdan kutilayotgan natijani oldindan diagnostikashtirishni uddalay olish qobiliyatlarini shakllantirish singari ijobiy sifatlar rivojlantirib boriladi.

NATIJALAR

Loyihalash metodining mustaqil bilim olishga ta’siri haqida to‘xtalib o‘tamiz. Talabalar uchun mustaqil bilim olish faqat ma’lumotlarni eslab qolish emas, balki: muammoga duch kelish; ma’lumotni izlab topish; uni tahlil qilish; yechim topish orqali o‘zlashtirish demakdir.

Loyihalash metodining talabalar mustaqil bilim olishidagi o‘rni quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Ichki motivatsiyani shakllantiradi. Talaba o‘z loyihasining yakuniy natijasi uchun javobgar bo‘lganligi sababli, bilim olishga ichki ehtiyoj sezadi [2;68-72b]. U berilgan vazifani bajarish uchun axborot izlaydi, resurslardan foydalanadi va o‘rganadi.

2. Axborot bilan mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Loyihalashda talabalar ko‘pincha darslikdan tashqaridagi manbalarni o‘rganadilar: internet, maqolalar, intervyular, amaliyot obyektlari, statistik ma’lumotlar. Bu esa ularni mustaqil tadqiqot olib borishga undaydi.

3. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Talabalar loyihaning har bir bosqichida tahlil, taqqoslash, baholash, yechim ishlab chiqish kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanadilar. Bu jarayon tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

4. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilishni o‘rgatadi. Loyiha yakunida talabalar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, natijalarni baholaydi, xatolarni aniqlaydi va keyingi loyihalar uchun xulosa chiqaradi.

5. Jamoada ishlash va ijtimoiy faollikni oshiradi. Loyiha ko‘pincha guruhlarda amalga oshiriladi. Talabalar o‘z fikrlarini ifoda etadi, tinglaydi, bahs qiladi, kelishuvga erishadi. Bu ijtimoiy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi.

Loyihalash metodi zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, talabalarni mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvchi va bilimga chanqoq shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki uni izlab topadi, sinovdan o‘tkazadi va o‘z tajribasi orqali anglab yetadi. Shunday ekan, loyihalash metodini o‘quv jarayoniga keng joriy etish, uni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, zarur resurslar bilan ta’minlash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali mustaqil bilim olishga tayyor yoshlarni tarbiyalash mumkin [3;90-92b].

Mustaqil bilim olish ehtiyojlarining rivojlanishi subektni faollikka undaydi va shu bilan birga uning oldiga bilim va malakalarni egallash vazifasini qo‘yadi. Mustaqil bilim olish qanday bo‘lishi kerak degan savolga quyidagicha javob berish mumkin: o‘qituvchi va talaba hamkorligidagi faoliyatning yakuni oldindan aniq bo‘lgan o‘qitish jarayonidan farqli ravishda, mustaqil bilim olishda subekt aniq bo‘lmagan va oldindan rejalashtirilmagan natijani qayd etishi kerak, ya’ni bilim, ko‘nikma va malakalarning aniq hajmini o‘zlashtirishi kerak. Talabalarning bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishda mustaqil ta’lim olish, ya’ni avtodidaktika (avtodidaktika – o‘z-o‘zini o‘qitish va avtonomlik) tamoyili hamda inson ehtiyojlari piramidasidagi o‘z-o‘zini namoyon qilish ehtiyoji o‘zaro aloqadorligini ko‘rishimiz mumkin. Oliy ta’lim tizimida

talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishning pedagogik muammosi chuqur tahlil qilinib, uning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, zamonaviy kredit-modul tizimi doirasida mustaqil o‘qish jarayonini tashkil etish mexanizmlari bayon etilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim – bu nafaqat talabalar bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish, balki ularning kognitiv, kreativ va hamkorlikda ishlash kompetentsiyalarini shakllantirishda, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish va tashabbuskorlikni yo‘lga qo‘yishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar mustaqil o‘qish faoliyati, asosan, o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan tadqiqotlar va amaliy ishlar orqali, individual ehtiyojlar va qiziqishlar asosida shakllanib, ularning ijodiy tafakkurini, muammolarni hal etish ko‘nikmalarini va o‘z bilimlarini chuqurroq anglash qobiliyatini rivojlantiradi.

Birinchidan, maqolada mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki va shaxsiy tashabbusining ahamiyati ta’kidlangan [4;76-81b]. Har bir modul va kreditning belgilangan hajmi talabaga o‘zining qiziqishlari va kelajakdagi kasbiy yo‘nalishini aniqlashda yordam beradi. Talabalar o‘z-o‘zini o‘rganish orqali nafaqat olingan nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki yangi axborot manbalaridan foydalanish, ularni tahlil qilish va amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, mustaqil ta’lim orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, erkin mulohaza yuritish va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlari shakllanadi. Bu jihatlar ularning kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy faoliyatlarida yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardir.

Ikkinchidan, maqolada mustaqil ta’limni tashkil etishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari, jumladan kredit-modul tizimi va ta’limning distansion shakllari taqdim etildi. Bu tizimlar talabalar uchun moslashuvchan va individual yondashuv imkoniyatlarini yaratadi, ularni o‘z-o‘zini o‘rganishga, axborot bilan mustaqil ishlashga va shaxsiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar va pedagoglar uchun ham mustaqil ta’limni nazorat qilish, baholash va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular yordamida talabalarning bilim olish jarayoni samarali ravishda boshqarilishi mumkin.

Uchinchidan, maqolada mustaqil ta’limning faqat akademik bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki shaxsiy fazilatlar – mas’uliyatlilik, ijodkorlik, tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham shakllantirishdagi roli ko‘rsatildi. Talabalar o‘z bilimlarini mustaqil o‘zlashtirish jarayonida, nafaqat o‘qituvchi tomonidan belgilangan topshiriqlarni bajargan holda, balki o‘ziga xos qiziqishlari va shaxsiy rejalari doirasida, mustaqil tahlil va izlanishlar olib boradilar. Bu jarayon talabaning shaxsiy intellektual salohiyatini yanada kengaytiradi va ularni kelajakda murakkab muammolarni mustaqil hal eta oladigan, innovatsion fikrlashga ega mutaxassisga aylantiradi.

To‘rtinchidan, pedagogik amaliyotda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilar va ilmiy rahbarlar tomonidan individual yondashuv, o‘quv dasturini moslashtirish va talabaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish zarurati ta’kidlandi. Maqolada ilgari surilgan nazariy va amaliy tavsiyalar, shuningdek, xalqaro tajribalar asosida mustaqil ta’limning turli shakllari va usullari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatildi. Bunday yondashuv talabalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, intellektual salohiyatni oshirish va o‘qitish

jarayonini yanada interaktiv qilish imkonini beradi [5;71-74b]. Natijada, mustaqil ta’limni tashkil etish nafaqat talabalarning bilimlarini yanada mustahkamlash, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kelajakdagi oliy ta’lim tizimi uchun mustaqil o‘qish faoliyati – avtonomlik, ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantirish bo‘yicha poydevor bo‘lib, ularning kadrlar tayyorlashdagi muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi innovatsion texnologiyalar va ta’lim metodikasi, o‘qituvchi-talaba hamkorligini yanada mustahkamlash, shaxsiy tashabbus va ijtimoiy faollikka yo‘naltirilgan strategiyalar kelajakda ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi.

MUHOKAMA

Maqolada keltirilgan nazariy va amaliy xulosalar asosida aytish mumkinki, mustaqil ta’lim – bu zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u talabalarning individual qobiliyatlarini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish salohiyatini maksimal darajada namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, raqobatbardosh, yuqori malakali va ijtimoiy mas’uliyatga ega kadrlarini tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Shu bois, ta’lim tizimida mustaqil ta’limni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, innovatsion yondashuvlar va pedagogik metodlarning yanada takomillashtirilishi zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davletshin M. “Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti.” – Toshkent, 2022.

2. Karimova V. “Zamonaviy ta’lim metodlari.” – Toshkent, 2021.

3. Dewey J. Experience and Education. – New York, 1938.

4. Thomas J.W. “A Review of Research on Project-Based Learning.” – The Autodesk Foundation, 2000.

5. Ro‘zmetova G.Sh. O‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning asoslari.